IJRO.GOV.UZ тизими орқали ЭРИ билан тасдиқланган, Ҳужжат коди: PQ26486012

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI**
**OLIY VA O‘RTA MAXSUS TA’LIM VAZIRLIGI**
**QO‘QON DAVLAT UNIVERSITETI**

**“TASDIQLAYMAN”**
**Qo‘qon davlat universiteti**
**rektori D.Sh. Xodjayeva**
**29-avgust 2025-yil**

# AMALIY GRAMMATIKA VA FONETIKA
# FAN DASTURI

| | |
|---|---|
| **Bilim sohasi:** | 220 000 – Gumanitar fanlar (tillardan tashqari) |
| **Ta’lim sohasi:** | 230 000 – Tillar |
| **Ta’lim yo‘nalishi:** | 60230100 – Filologiya va tillarni o‘qitish (ingliz tili) |

<table>
<tr><td colspan="2">Fan/mavzu kodi<br>AGF1204</td><td>O‘quv yili<br>2025-2026</td><td>Semestr<br>1-2</td><td colspan="2">Kreditlar<br>6/4</td></tr>
<tr><td colspan="2">Fan/mavzu turi<br>Majburiy</td><td colspan="2">Ta’lim tili<br>O‘zbek/rus/ingliz</td><td colspan="2">Haftadagi dars soatlari<br>4/3</td></tr>
<tr><td rowspan="2">1.</td><td colspan="2">Fanning nomi</td><td>Auditoriya mashg‘ulotlari (soat)</td><td>Mustaqil ta’lim (soat)</td><td>Jami yuklama (soat)</td></tr>
<tr><td colspan="2">Amaliy grammatika va fonetika</td><td>60/60</td><td>120/60</td><td>180/120</td></tr>
<tr><td>2.</td><td colspan="5">I. Fanning mazmuni- talabalarning tanqidiy va ijodiy fikrlash, og‘zaki va yozma nutqda to‘g‘ri grammatik shakllardan foydalanish, talaffuzni fonetik me’yorlarga muvofiq qo‘llash kompetensiyalarini rivojlantirishdir. Shuningdek, CEFR xalqaro baholash tizimi bo‘yicha C1 daraja talabiga javob beruvchi grammatik va fonetik ko‘nikmalarni egallash, talaffuz, intonatsiya, urg‘u va grammatik strukturalarni aniq va to‘g‘ri qo‘llash malakasiga ega bo‘lish hamda bu bilim va ko‘nikmalarni kasbiy va ilmiy faoliyatda erkin qo‘llay olishni ta’minlashdir.<br>Fanning vazifasi - CEFR xalqaro baholash tizimida e’tirof etilgan xalqaro me’yorlarga ko‘ra talabalarni grammatik jihatdan savodli yozish va gapira olish, fonetik me’yorlarni nutqda qo‘llash, talaffuzdagi asosiy xatolarni aniqlash va tuzatish malakasini shakllantirishdan iborat. Shuningdek, og‘zaki va yozma nutqda qo‘llaniladigan grammatik strukturani mustahkamlash, nutqda to‘g‘ri intonatsiya va urg‘udan foydalanish, ilmiy hamda kasbiy matnlarni grammatik va fonetik jihatdan savodli tuza olish ko‘nikmalarini takomillashtirish fanning asosiy vazifalaridan biridir.<br>Fanning yetakchi TOP-300 xalqaro universitetlari dasturi asosida tayyorlanganligi</td></tr>
</table>

**Amaliy grammatika va fonetika** fani dasturi dunyoning yetakchi oliy ta'lim muassasalaridan biri bo'lgan **UCL – London`s Global University (Buyuk Britaniya)** va **The University of Edinburgh (Buyuk Britaniya)** universitetlarining o'quv dasturlari asosida takomillashtirilgan.

- **UCL (University College London)** QS World University Rankings 2024 bo'yicha **9-o'rinni** egallagan bo'lib, fonetika va lingvistika bo'yicha yuqori ilmiy-uslubiy bazaga ega
- **The University of Edinburgh** esa QS World University Rankings 2024 bo'yicha **34-o'rinda** qayd etilgan bo'lib, fonetika va grammatika sohasida chuqur ilmiy tadqiqotlarga asoslangan dasturga ega.

Mazkur fan dasturi ishlab chiqilishida ushbu universitetlarning fonetika va grammatika fanlariga oid kurslari, shuningdek, **CEFR xalqaro baholash tizimi (C1 daraja)** talablariga javob beruvchi kompetensiyalar inobatga olingan.

**Dasturda quyidagi asosiy jihatlar inobatga olingan:**

**Nazariy va amaliy yondashuv uyg'unligi** – Ingliz fonetikasining asosiy birliklari (tovushlar tizimi, urg'u, intonatsiya, bog'lanish jarayonlari) hamda grammatikaning yadro strukturalari (so'z turkumlari, fe'l shakllari, murakkab gaplar) nazariy jihatdan o'rganilib, talaffuz va grammatik mashqlar orqali amalda mustahkamlanadi.

**Tanqidiy fikrlash va tahlil ko'nikmalarini rivojlantirish** – talabalar fonetik va grammatik xatolarni mustaqil aniqlash, ularni tuzatish, nutqiy vazifalarda to'g'ri qo'llash hamda dalillarga tayangan holda grammatik tahlil va fonetik sharh berishni o'rganadilar.

**Interfaol metodlar** – “Aqliy hujum”, “Debat”, “Munozara”, “Rol o‘ynash” texnologiyalari, shuningdek, fonetik laboratoriya va multimedia resurslari yordamida nutqiy ko‘nikmalarni rivojlantirish.

**Global taqqoslash yondashuvi** – Britaniya va Amerika inglizchasining fonetik farqlari, turli aksent va talaffuz uslublarining qiyosiy tahlili, shuningdek, turli tillardagi unli tizimlarning ingliz tiliga qiyosiy o‘rganilishi.

**II. Asosiy qism (amaliy mashg’ulotlar)**

**II.I. Fan tarkibiga quyidagi mavzular kiradi:**

**1-mavzu: English vowel system: short and long vowels**
Ingliz tilidagi unli tovushlarning qisqa va uzun shakllari haqida tushuncha beriladi, talaffuz mashqlari bajariladi va minimal juftliklar orqali farqlar mustahkamlanadi.

**2-mavzu: Consonant system: voiced and voiceless sounds**
Jarangli va jarangsiz undosh tovushlar o‘rganiladi, talaffuzda tovushlarni farqlash mashqlari bajariladi.

**3-mavzu: Word stress: rules and patterns**
So‘z urg‘usi va uning qoidalari tushuntiriladi. Urg‘u turiga oid mashqlar bajariladi.

**4-mavzu: Sentence stress and rhythm in English**
Gap urg‘usi va ritmi haqida ma’lumot beriladi. Nutqda urg‘uni to‘g‘ri qo‘yish mashqlari bajariladi.

**5-mavzu: Intonation types and their communicative functions**
Asosiy intonatsiya turlari va ularning ma’no ifodalashdagi vazifasi o‘rganiladi.

**6-mavzu: Connected speech: assimilation, elision, linking**

Bog‘langan nutqda tovushlar o‘zgarishi – assimilyatsiya, eliziya va bog‘lanish qoidalari tushuntiriladi.

**7-mavzu: Weak forms and strong forms in English speech**

Kuchsiz va kuchli shakllar haqida tushuncha beriladi, nutqda qo‘llash mashqlari bajariladi.

**8-mavzu: Speakers and accents**

University College London

QS Rank-9

**https://www.phon.ucl.ac.uk/courses/plin0065/syllabus.php?utm_source**

Turli ingliz lahjalari va talaffuzdagi farqlar haqida tushuncha beriladi, misollar tahlil qilinadi.

**9-mavzu: Pronunciation of borrowed words and internationalisms**

Ingliz tilidagi o‘zlashma so‘zlar va ularning talaffuzi haqida ma’lumot beriladi.

**10-mavzu: Differences in British and American pronunciation**

Britaniya va Amerika inglizchasining fonetik farqlari tushuntiriladi.

**11-mavzu: Expressive intonation: emphasis and attitude in speech**

Ifodali intonatsiya va uning yordamida gapiruvchining munosabatini ifodalash mashqlari bajariladi.

**12-mavzu: Parts of speech overview and their functions**

So‘z turkumlari haqida umumiy tushuncha beriladi va ularning gapdagi vazifalari o‘rganiladi.

| | |
|---|---|
| | **13-mavzu: Noun system: countable and uncountable nouns, articles**<br>Otlarning sanaladigan va sanalmaydigan turlari hamda artikllar qo‘llanilishi tushuntiriladi.<br><br>**14-mavzu: Pronouns: personal, relative, reflexive, indefinite**<br>Olmosh turlari va ularning gapda qo‘llanilishi tushuntiriladi. Mashq topshiriqlari bajariladi.<br><br>**15-mavzu: Phonological constituents: onsets, nuclei and rhymes**<br><br>University College London<br><br>QS Rank-9<br><br>**https://www.phon.ucl.ac.uk/courses/plin0065/syllabus.php?utm_source**<br>Fonologik birliklar haqida tushuncha beriladi. Onset, yadro va qofiya misollar bilan tahlil qilinadi.<br><br>**16-mavzu: Vowel systems across languages**<br><br>University College London<br><br>QS Rank-9<br><br>**https://www.phon.ucl.ac.uk/courses/plin0065/syllabus.php?utm_source**<br>Turli tillardagi unli tovush tizimi bilan ingliz unli tovushlari qiyosiy tahlil qilinadi.<br><br>**17-mavzu: Analysis of English consonants**<br><br>The university of Edinburgh<br><br>QS Rank- 34 |

| | |
|---|---|
| | http://www.drps.ed.ac.uk/19-20/dpt/cxlasc11089.htm<br>Ingliz undoshlari tizimi, ularning talaffuzi va artikulyatsiyasi tahlil qilinadi.<br><br>**18-mavzu: Primary and Secondary Cardinal Vowels**<br><br>The university of Edinburgh<br><br>QS Rank- 34<br><br>http://www.drps.ed.ac.uk/19-20/dpt/cxlasc11089.htm<br>Kardinal unlilar haqida tushuncha beriladi va ularni talaffuz qilish mashqlari bajariladi.<br><br>**19-mavzu: Suprasegmentals in English**<br><br>University College London<br><br>QS Rank-9<br><br>**https://www.phon.ucl.ac.uk/courses/plin0065/syllabus.php?utm_source**<br>Supersegment birliklar – urg‘u, intonatsiya, ritm tushuntiriladi.<br><br>**20-mavzu: Paralinguistics and speaking style**<br>Paralingvistika, emotsiya va uslubning nutqqa ta’siri o‘rganiladi.<br><br>**21-mavzu: Modal verbs and their functions in speech**<br>Modal fe’llar va ularning nutqda vazifalari tushuntiriladi.<br><br>**22-mavzu: Passive voice: structures and uses**<br>Passiv qo‘llanishi, grammatik strukturasi va amaliy mashqlar bajariladi.<br><br>**23-mavzu: Conditional sentences: types and usage**<br>Shart mayli gaplari, ularning turlari va qo‘llanishi tushuntiriladi. |

| | |
|---|---|
| | **24-mavzu: Reported speech: statements, questions, commands**<br>Ko‘chirma gaplarni o‘zgartirish qoidalari va misollar tahlil qilinadi.<br><br>**25-mavzu: Adjectives and adverbs: comparison, position, usage**<br>Sifat va ravishlarning darajalari va qo‘llanish o‘rni tushuntiriladi.<br><br>**26-mavzu: Sentence types: simple, compound, complex**<br>Oddiy, qo‘shma va murakkab gaplar strukturasi o‘rganiladi.<br><br>**27-mavzu: Word order and inversion in English**<br>Ingliz tilida so‘z tartibi va inversiya qoidalari tushuntiriladi.<br><br>**28-mavzu: Phrasal verbs: types and practice in context**<br>Frazeologik fe’llar va ularning nutqda qo‘llanilishi o‘rganiladi.<br><br>**29-mavzu: Non-finite forms of the verb: infinitive, gerund, participles**<br>Fe’lning no-shaxsiy shakllari – infinitiv, gerundiy va sifatdoshlar amalda qo‘llaniladi.<br><br>**30-mavzu: Complex sentences with subordinate clauses**<br>Murakkab gaplarda ergash gaplar (zamon, sabab, natija, qiyos) tahlil qilinadi.<br><br>**1-mavzu: Fundamental Sentence Structures – interrogatives, negatives, imperatives, and exclamatives**<br>Ingliz tilidagi asosiy gap turlari: so‘roq gaplar, inkor gaplar, buyruq gaplar va undov gaplar haqida tushuncha beriladi, mashqlar orqali turli gaplarni tuzish amaliyoti o‘tkaziladi.<br><br>**2-mavzu: Core Auxiliary Verbs (be, have, do)**<br>Yordamchi fe’llar *be, have, do* ning shakl va vazifalari tushuntiriladi, gaplarda qo‘llash mashqlari bajariladi. |

| | |
|---|---|
| | **3-mavzu: Present and Future Time Reference**<br>Hozirgi va kelasi zamon shakllari (aspektual farqlar, hikoya zamoni, kelasi zamon shakllari: *will, going to, be + infinitive*, future perfect) haqida tushuncha beriladi, qo‘llash bo‘yicha amaliy mashqlar bajariladi.<br><br>**4-mavzu: Modal Verbs and Modality**<br>Modal fe’llarning (can, may, must, should va boshqalar) ma’no va qo‘llanishlari tushuntiriladi, nutqda ishlatish bo‘yicha mashqlar bajariladi.<br><br>**5-mavzu: Passive Voice**<br>Passiv vozning shakllanishi, vazifalari, uslubiy motivlari va murakkab passiv konstruktsiyalar o‘rganiladi, gaplarni faol va passivda o‘zgartirish mashqlari bajariladi.<br><br>**6-mavzu: Non-finite Verb Forms**<br>Infinitiv va gerund shakllari, perfect infinitive, bare infinitive, subject infinitive va nominalised -ing formalar haqida tushuncha beriladi, qo‘llash bo‘yicha mashqlar bajariladi.<br><br>**7-mavzu: Complex Verb Structures**<br>Phrasal va prepositional verbs, verb–object–complement tuzilmalar hamda causative constructions o‘rganiladi, amaliy misollar va mashqlar bajariladi.<br><br>**8-mavzu: Nouns and Pronouns**<br>Otlar va olmoshlarning turlari, ularning gapdagi vazifalari tushuntiriladi, mashqlar orqali qo‘llash mustahkamlanadi.<br><br>**9-mavzu: Determiners I: Articles, Demonstratives, and Possessives**<br>Artikllar, ko‘rsatkich olmoshlar va egalik aniqlovchilari haqida tushuncha beriladi, gaplarda qo‘llash mashqlari bajariladi. |

| | |
|---|---|
| | **10-mavzu: Adjectives, Adverbs, and Degrees of Comparison**<br>Sifatlar, ravishlar va ularning darajalari (comparative, superlative) tushuntiriladi, mashqlar orqali amaliy qo'llash o'rganiladi.<br><br>**11-mavzu: Prepositions**<br>Ingliz tilidagi asosiy predloglar va ularning qo'llanishi tushuntiriladi, so'z birikmalarida ishlatish mashqlari bajariladi.<br><br>**12-mavzu: Conjunctions, Clauses, and Tense Simplification**<br>Bog'lovchilar, gap bo'laklari va zamonlarni soddalashtirish usullari o'rganiladi, murakkab gaplar bilan ishlash mashqlari bajariladi.<br><br>**13-mavzu: Relative Clauses**<br>Nisbiy gaplar (defining va non-defining relative clauses) haqida tushuncha beriladi, gap tuzish mashqlari bajariladi.<br><br>**14-mavzu: Accents: English as an international language**<br>Ingliz tilining xalqaro tildagi talaffuz uslublari haqida tushuncha beriladi, turli aksentlarni tinglab farqlash mashqlari bajariladi.<br><br>**15-mavzu: Consonant clusters**<br>Jarangli va jarangsiz undosh tovushlar ketma-ketligi haqida tushuncha beriladi, talaffuz mashqlari bajariladi.<br><br>**16-mavzu: Stress in words and phrases**<br>So'z va iboralarda urg'u qo'yish qoidalari tushuntiriladi, talaffuz mashqlari bajariladi.<br><br>**17-mavzu: Stressed and unstressed syllables**<br>Urg'uli va urg'usiz bo'g'inlar haqida tushuncha beriladi, talaffuz mashqlari bajariladi. |

**18-mavzu: Features of fluent speech**

Ravon nutqning xususiyatlari (linking, reduction, elision) tushuntiriladi, nutqiy mashqlar bajariladi.

**19-mavzu: Organising information in conversation**

Suhbatda ma’lumotni tartibli ifodalash usullari o‘rganiladi, rolli o‘yinlar va muloqot mashqlari bajariladi.

**20-mavzu: Intonation in telling, asking and answering**

Xabar berishda, so‘rashda va javob berishda intonatsiya qo‘llanishi tushuntiriladi, talaffuz mashqlari bajariladi.

**21-mavzu: Intonation in managing conversation**

Suhbatni boshqarishda intonatsiyaning roli o‘rganiladi, muloqot mashqlari bajariladi.

**22-mavzu: English vowel system: monophthongs, diphthongs, and triphthongs**

Ingliz tilidagi unli tovushlar tizimi – monoftong, diftong va trifonglar tushuntiriladi, talaffuz mashqlari bajariladi.

**23-mavzu: Advanced consonant articulation**

Jarangli-jarangsiz, aspiratsiyali va aspiratsiyasiz undosh tovushlarning talaffuzi o‘rganiladi, mashqlar orqali mustahkamlanadi.

**24-mavzu: Word stress in polysyllabic words**

Ko‘p bo‘g‘inli so‘zlarda urg‘u qo‘yish qoidalari va istisnolar o‘rganiladi, talaffuz mashqlari bajariladi.

## III. Amaliy mashg‘ulotlar  buyicha ko‘rsatma va tavsiyalar

**Amaliy grammatika va fonetika** moduli bo‘yicha talaba quyidagi bilim va ko‘nikmalarni egallashi shart:

- fonetika asoslarini (tovushlar tizimi, urg‘u, intonatsiya, bog‘lanish jarayonlari) bosqichma-bosqich egallab borish;
- talaffuz ko‘nikmalarini nutqda to‘g‘ri qo‘llash, og‘zaki muloqotda aniq va ravon gapira olish;
- grammatik qoidalarni yozma va og‘zaki nutqda qo‘llash, jumlalarni to‘g‘ri tuzish;
- fonetik va grammatik bilimlarini qo‘llash orqali nutqdagi xatolarni aniqlash va ularni tuzatish;
- mavzusi qisman tanish bo‘lgan, murakkablik darajasi turlicha matnlar va audiomateriallardan foydalanib, talaffuz va grammatik shakllarni mustahkamlash;
- tili o‘rganilayotgan mamlakat fonetik va grammatik xususiyatlarini ona tili bilan qiyoslash, ularning farqli va o‘xshash tomonlarini tushunish;
- fonetika va grammatika integratsiyasini ta’minlagan holda nutqiy vazifalarni bajarish orqali kommunikativ kompetensiyani rivojlantirish.

Amaliy mashg‘ulotlarda:

- turli mashqlar orqali fonetik apparatni rivojlantirish (minimal juftliklar, urg‘u va intonatsiya mashqlari, audio-matnlar asosida talaffuzni mustahkamlash);
- grammatik strukturalarni qo‘llash (gaplarni tuzish, transformatsiya qilish, dialog va monologlarda ishlatish);
- talaffuz va grammatikani birgalikda mashq qilish (rolli o‘yinlar, suhbatlar, matnlarni o‘qish va qayta hikoya qilish);

- fonetik va grammatik xatolarni tahlil qilish va tuzatish bo‘yicha mashqlar bajariladi.

Mashg‘ulotlar faol va interfaol usullar yordamida olib boriladi. “Aqliy hujum”, “Debat”, “Munozara”, “Rol o‘ynash” texnologiyalari qo‘llaniladi, savollar va topshiriqlar o‘qituvchi tomonidan belgilanadi. Ko‘rgazmali materiallar, audio-video vositalar hamda multimedia resurslari yordamida amaliy mashqlar bajariladi.

## IV. Mustaqil ta’lim va mustaqil ishlar

**Auditoriyadan tashqari vaqtda bajariladigan mustaqil ishlar quyidagi mavzu va faoliyat turlarida amalga oshirilishi tavsiya etiladi:**

- Auditoriyadan tashqari vaqtda bajariladigan mustaqil ishlar quyidagi mavzu va faoliyat turlarida amalga oshirilishi tavsiya etiladi:
- fonetik mashqlar: tovushlar talaffuzi, minimal juftliklar, urg‘u va intonatsiya mashqlari;
- audio va video materiallar asosida talaffuzni tahlil qilish, tinglab yozish (dictation, transcription);
- fonetik diktantlar va transkripsiya yozish mashqlari;
- so‘z va gaplarni fonetik jihatdan tahlil qilish;
- og‘zaki nutqda talaffuzni yozib olish va tahlil qilish (self-recording va peer-review);
- grammatik topshiriqlar (gaplarni transformatsiya qilish, murakkab strukturalarni qo‘llash);
- matnlarni grammatik va fonetik jihatdan tahlil qilish;
- grammatik testlar va mashqlarni bajarish;

| | |
|---|---|
| | - talaffuz va grammatika bo‘yicha glossariy tuzish;<br>- qisqa grammatik konspektlar yozish;<br>- individual va guruhiy loyihalar (fonetik va grammatik mavzular bo‘yicha);<br>- keys-topshiriqlarni bajarish (og‘zaki va yozma nutqda grammatik va fonetik xatolarni topish va tuzatish);<br>- mavzuli portfoliolar tuzish (grammatika va fonetikaga oid mashqlar, yozuvlar va audio yozuvlar to‘plami);<br>- multimediali taqdimotlar yaratish (grammatik mavzularni tushuntirish yoki talaffuzni namoyish qilish);<br>- grammatik va fonetik qiyinchiliklarni taqqoslash bo‘yicha ilmiy-ijodiy ishlar tayyorlash;<br>- bitiruv malakaviy ishi va ilmiy maqola yozishda fonetika va grammatika bilimlarini qo‘llash.<br>- Ta’lim yo‘nalishi (mutaxassislik)ning xususiyatidan kelib chiqqan holda mustaqil ishlarning boshqa turlaridan ham foydalanish mumkin. |
| **3.** | **V. Ta’lim natijalari (shakllanadigan kompetensiyalar)**<br>**Talaba bilish kerak:**<br>• Amaliy grammatika va fonetika fanining asosiy tushunchalari: ingliz tili fonetik tizimi (tovushlar, urg‘u, intonatsiya, bog‘lanish jarayonlari) hamda grammatikaning asosiy bo‘limlari (morfologiya, sintaksis, gap turlari, zamonlar tizimi, modal fe’llar, passiv va ko‘chirma gaplar) haqida tasavvurga ega bo‘lishi; (bilim).<br>**Talaba ega bo‘lishi kerak bo‘lgan ko‘nikmalar:**<br>• UmumYevropa standartlariga (CEFR) ko‘ra C1 daraja talabiga javob beruvchi darajada grammatik strukturani yozma va og‘zaki nutqda to‘g‘ri qo‘llash;<br>• fonetik jihatdan aniq talaffuz qilish, to‘g‘ri urg‘u va intonatsiyadan |

| | |
|---|---|
| | foydalanish;<br>• o‘z nutqidagi fonetik va grammatik xatolarni aniqlash, ularni mustaqil tuzatish va nutqda samarali qo‘llay olish;<br>• grammatik va fonetik bilimlarini kasbiy va ilmiy faoliyatida qo‘llay olish; (ko‘nikma).<br>**Talaba ega bo‘lishi kerak bo‘lgan malakalar:**<br>• Fanni o‘qitishda ta’lim texnologiyalari, tarqatma materiallar, audio-video resurslar, elektron darsliklar, fonetik laboratoriya vositalari va interaktiv dasturlardan foydalanish;<br>• mustaqil ta’lim, aqliy hujum, vaziyatli masalalarni yechish, munozara, rolli o‘yinlar, fonetik mashqlar, talaffuz laboratoriyasi, yozma va og‘zaki grammatik topshiriqlar yordamida samarali o‘qitish jarayonida faol ishtirok etish;<br>• talabalar bilimini nazorat qilish, baholash va tahlil qilish malakasiga ega bo‘lish. (malaka). |
| **4.** | **VI. Ta’lim texnologiyalari va metodlari:**<br>• interfaol keys-stadilar (grammatik va fonetik vaziyatlarni hal qilish bo‘yicha topshiriqlar);<br>• mantiqiy fikrlash va tezkor savol-javoblar (grammatik qoidalar va talaffuz mashqlarini tekshirishda);<br>• guruhlarda ishlash (dialoglar, suhbatlar, fonetik va grammatik mashqlarni bajarish);<br>• taqdimotlarni qilish (grammatik mavzularni tushuntirish yoki fonetik namoyishlar o‘tkazish);<br>• individual loyihalar (talaffuz va grammatik tahlilga oid mustaqil ishlar);<br>• jamoa bo‘lib ishlash va himoya qilish uchun loyihalar (fonetik va grammatik mavzularni amaliyotda qo‘llash);<br>• kommunikativ metodlar (og‘zaki nutqda grammatik va fonetik me’yorlarni qo‘llash);<br>• kognitiv metodlar (grammatik struktura va fonetik hodisalarni tahlil qilish, taqqoslash va umumlashtirish). |

| | |
|---|---|
| **5.** | **VII. Kreditlarni olish uchun talablar:**<br>Fanga oid nazariy va amaliy tushunchalarni to‘la o‘zlashtirish, tahlil natijalarini to‘g‘ri aks ettira olish, o‘rganilayotgan mavzular haqida mustaqil mushohada yuritish, ijod qilish va joriy nazorat,mustaqil ish shakllarida berilgan vazifa va topshiriqlarni bajarish, yakuniy nazorat bo‘yicha amaliy ishni topshirish. |
| **6.** | **VIII. Asosiy adabiyotlar**<br>1. Фонетика английского языка Андрух М. “Примат” М-1993<br>2. Теоретическая фонетика английского языка Леонтьева С. “Высш.шк.” М-1980<br>3. Ingliz tili fonetikasi. Nazariy kurs Abduazizov A. D. Toshkent-2007<br>4. Ҳозирги инглиз тили назарий фонетикаси Абдуазизов А. Д. “Ўқитувчи” Т-1986<br>5. Эшхужаева Н. “Инглиз тили грамматикаси” ук. Истиклол, Т-2004<br>6. Гаппоров М. “Инглиз тили грамматикаси” ук. Турон, Т-2019<br><br>**IX. Qo‘shimcha adabiyotlar**<br><br>1. Mirziyoev Shavkat Miromonovich. Tanqidiy tahlil, qat’iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo‘lishi kerak. Mamlakatimizni 2016 yilda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning asosiy yakunlari va 2017 yilga mo‘ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo‘nalishlariga bag‘ishlangan Vazirlar Mahkamasining kengaytirilgan majlisidagi ma’ruza, 2017 yil 14 yanvar / SH.M. Mirziyoev. – Toshkent: O‘zbekiston, 2017. – 104 b.<br><br>2. Mirziyoev Shavkat Miromonovich. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta’minlash – yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganining 24 yilligiga bag‘ishlangan tantanali marosimdagi ma’ruza. 2016 yil 7 dekabr /Sh.M.Mirziyoev. – Toshkent: “O‘zbekiston”, 2017. – 48 b.<br><br>3. Mirziyoev Shavkat Miromonovich. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. Mazkur kitobdan O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning 2016 yil 1 noyabrdan 24 noyabrga qadar Qoraqalpog‘iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahri saylovchilari vakillari bilan o‘tkazilgan saylovoldi uchrashuvlarida so‘zlagan nutqlari o‘rin olgan. /Sh.M.Mirziyoev. – Toshkent: “O‘zbekiston”, 2017. – 488 b. |

| | |
|---|---|
| | 4. Mirziyoev Shavkat Miromonovich. Yangi O'zbekiston strategiyasi.-Toshkent, 2021. -458 b.<br><br>**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTINING FARMONI**<br>1. O'zbekiston respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha harakatlar strategiyasi to'g'risida. (O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2017 y., 6-son, 70-modda)<br>2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 - yil 6 – noyabrdagi "O'zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ta'lim - tarbiya va ilm - fan sohalarini rivojlantirish chora tadbirlari to'g'risida " gi PF - 6108 - son farmoni.<br>**Axborot manbalari**<br>1. http://www.edu.uz–O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi sayti.<br>2. http:www.uzedu.uz – O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi sayti.<br>3. http://www.gov.uz– O'zbekiston Respublikasi xukumati portali.<br>4. www.pedagog.uz<br>5. http://www.ziyonet.uz/<br>6. www.teachingenglish.org.uk<br>7. www.onestopenglish.com<br>8. www.businessenglishonline.net<br>9. www.elgazette.com<br>10. www.tesol.org.<br>11. www.tefl.com,<br>12. www.teachertrainingvideos.com<br>13. http://www.learnenglish.org.uk/<br>14. www.educationuk.org |
| **7.** | Fan dasturi Qo'qon davlat universiteti tomonidan ishlab chiqilgan va universitet kengashining 2025-yil 29-avgustdagi 1-sonli qarori bilan tasdiqlangan. |
| **8.** | **Fan/modul uchun mas'ullar va dastur mualliflari:**<br>N. Xomidova- QDU, "Xorijiy tillar metodikasi " kafedrasi o'qituvchisi |
| **9.** | **Taqrizchilar**<br>M. Otaboyeva- QDU, "Xorijiy tillar metodikasi" dotsenti, Ph.D<br>K. Oripova- QDU, "Xorijiy tillar metodikasi" v.b dotsenti, Ph.D |